

MUSTAQIL O'ZBEKISTONDA DINIY MA'RIFAT VA YOSHLARGA OID DAVLAT SIYOSATIDA AMALGA OSHIRILGAN ISLOHOTLAR

Jumaniyazova Intizor To'likovna

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch Davlat

Universiteti Ijtimoiy- iqtisodiy fanlar fakulteti

Tarix yo'nalishi 3-kurs talabasi

Rezyume: Ushbu maqolada O'zbekistonda mustaqillik yillarida yoshlarda diniy-ma'naviy tafakkurni rivojlantirish masalalari haqida diniy ma'rifat va yoshlarga oid davlat siyosatida amalga oshirilgan islohotlar so'z boradi.

Kalit so'zlar: mustaqillik, siyosat, referendum, konseptual, davlat, yoshlar.

Kirish. Yoshlar har qanday jamiyatning ertangi kuni va taraqqiyotining asosiy tayanchidir. Ular nafaqat bugungi kunda, balki kelajakda ham davlat va jamiyat rivojiga munosib hissa qo'shadigan muhim kuch hisoblanadi. Diniy e'tiqod esa insonning axloqiy qadriyatlari, hayotga bo'lgan qarashlari va ijtimoiy munosabatlariga ta'sir ko'rsatuvchi muhim omillardan biridir. Ayniqsa, yoshlarning diniy e'tiqodi ularning shaxs sifatida shakllanishi va dunyoqarashi rivojida katta ahamiyat kasb etadi. Hozirgi yangilanayotgan O'zbekistonni bimalol yoshlar mamlakati deb atash mumkin. Chunki aholining salmoqli qismini aynan yoshlar tashkil etmoqda va bu ko'rsatkich yil sayin ortib bormoqda. Shu bois yoshlarni qo'llab-quvvatlash, ularning qiziqish va ehtiyojlarini o'rganish, orzu-intilishlarini ro'yobga chiqarish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylangan. So'nggi yillarda yoshlar bilan ishlashning yangi mexanizmlari va samarali tizimi shakllantirildi. Ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan yoshlar bilan bir qatorda, mahallalarda istiqomat qilayotgan uyushmagan yoshlarga ham alohida e'tibor qaratilmoqda. Chunki mahalla jamiyatning eng muhim bo'g'ini sifatida yoshlar tarbiyasi va ijtimoiy faolligini oshirishda katta rol o'ynaydi.

Mamlakatimizda yoshlar masalasi davlat siyosatining eng ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan. Yoshlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ularga keng imkoniyat va qulay shart-sharoitlar yaratish maqsadida mustahkam huquqiy asos yaratilgan bo'lib, u zamon talablari asosida izchil takomillashtirib borilmoqda. Jumladan, parlament tomonidan yoshlar sohasiga oid 40 dan ortiq qonun hujjatlari qabul qilingan, shuningdek, 30 dan ziyod xalqaro huquqiy normalar ratifikatsiya qilingan.

Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan ayni davrda insoniyat tarixidagi eng ko'p yoshlar qatlami bilan yashayotganimizni inobatga olgan holda BMT minbarida Yoshlar huquqlari to'g'risidagi BMT konvensiyasini qabul qilish taklifi ilgari surilgani ham xalqaro hamjamiyat tomonidan iliq qarshilandi[1]. O'zbekiston rahbari bunga

asos qilib, bugun dunyo miqyosida yoshlarning soni ikki milliarddan ortib ketgani, xalqaro terrorizm va eskremizm shiddat bilan o'sib borayotgan bir paytda yoshlarga himoya zarurligini muhim omillar sifatida asoslab berdi.

- Tahlil va natijalar (Analysis and results).

Yoshlarni ish bilan ta'minlash, ularning tashabbusini moliyalashtirish maqsadida 2018 - yildan boshlab hududlarda 25 ta "Yosh tadbirkorlar" kovorking markazi va 157 ta "Yoshlar mehnat guzari" kompleksi faoliyat boshladi. "Yoshlar – kelajagimiz" davlat dasturi doirasida respublikaning tuman va shaharlarida amalga oshiriladigan tadbirlarni moliyalashtirish amaliyoti yo'lga qo'yildi.

Oliy ta'lim muassasalari talabalarini ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda faolligini aniqlash maqsadida "O'zbekiston yoshlarining ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda faolligini yuksaltirish: muammo va yechimlar" mavzusida sotsiologik tadqiqot o'tkazildi. So'rovnomada O'zbekiston Milliy universiteti, Urganch davlat universiteti va Chirchiq davlat pedagogika universiteti talabalari ishtirok etdilar. Sotsiologik so'rovnomada jami 2031 nafar respondent qatnashdi, jumladan, erkaklar – 486 kishi (24,1%), xotin-qizlar – 1532 kishi (75,9%). Respondentlarni yosh tuzilmasi: 14-18 yosh – 249 kishi (12,3%), 19-25 yosh – 1566 kishi (77%), 26-30 yosh – 120 kishi (5,9%), 31-35 yosh – 42 kishi (2,1%), 36-40 yosh – 27 kishi (1,3%) va 40 yoshdan yuqorisi – 26 kishi (1,2%) tashkil qildi. So'rovnoma ishtirok etgan yoshlarning – 1861 nafari (92,5%) OTMlari talabalari, davlat tashkilotida ishlaydigani – 92 nafar (4,5%), Xususiy korxona/firmada ishlaydi – 23 nafar (1,2%), Vaqtincha ishsiz – 35 nafar (1,7%) ni tashkil etdi. Respondentlardan "Faolligingizni kim sifatida namoyish etishni xohlardingiz?" so'ralganda 1233 nafari (61,4%) Rahbar, 362 nafari (18%) Tashkilotchi, 156 nafari (7,8%) Ijrochi, 31 nafari (1,5%) Tomoshabin, 162 nafari (8,1%) Targ'ibotchi, 53 nafari (2,6%) Javob berishga qiynalaman, 12 nafari (0,6%) o'zining fikrlarini bildirishdilar [2].

Yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ilgari surilgan besh muhim tashabbusni targ'ib qilish va ro'yobga chiqarish alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur g'oyani amalga oshirish maqsadida O'zbekiston yoshlar ittifoqi qoshida "5 tashabbus loyiha ofisi" faoliyati yo'lga qo'yildi. Tegishli loyihalar, jumladan, "Sport karvoni", "Bir million dasturchi", "Eng yaxshi kitobxon oila" kabi loyihalar amalga oshirilmoqda.

Turli sohalarda samarali faoliyat yuritayotgan, yuqori natijalarga erishib, tengdoshlariga o'rnak bo'layotgan yigit-qizlarni rag'batlantirish maqsadida "Mard o'g'lon" davlat mukofoti va "Kelajak bunyodkori" medali ta'sis etildi. O'tgan vaqt davomida 113 nafar yosh "Mard o'g'lon" davlat mukofoti bilan, 75 nafari esa "Kelajak bunyodkori" medali bilan mukofotlandi [3].

O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti "...diniy dunyoqarash tafakkurning, insonning o'zini o'rab turgan dunyoga, o'zi kabi odamlarga

munosabatining yagona usuli bo'lmaganligini ham ta'kidlash zarur" [4], deya ta'kidlagan edi.

Yoshlarimizning dinga bo'lgan munosabatlarini ijobiyligini hamda unga nisbatan qiziqishning yuqori ekanligini hisobga olgan holda, ma'naviy-ma'rifiy tarbiyada diniy omil ham o'ziga xos beqiyos ahamiyatga ega ekanligini alohida ta'kidlab o'tishimiz kerak. Zero, mustaqil davlatimizga, eng avvalo, iymoni butun, qalbi toza insonlar, birinchi navbatda, yoshlar kerak. Har kungi faoliyatlarida insonlarga ezgu amallar, savob ishlar qilish, solih xulq sohibi bo'lgan yoshlarimiz dunyoqarashi nafaqat o'zini, shu bilan barcha yor-birodarlarini ham ezgulikka yetaklaydigan ma'naviy omillardan biri ekanligiga yosh avlodni ishontirishning o'zi ham dunyoviy ma'rifatdan boshqa narsa emas [5].

Umuman olganimizda, diniy g'oyalarni anglash va o'rganish, hozirgi vaqtda keng qamrovli islohotlarni o'tkazish jarayonida jamiyatni ma'naviy boyitish, milliy ongimizni yanada yuksaltirish, kelajagi buyuk davlatni yaratuvchi yosh avlodni dunyoviylik ruhida, milliy qadriyatlarimizga hurmat-ehtirom ruhida kamol topishlari uchun muhim omil bo'lib xizmat qilgan bo'lar edi.

Xulosa (Conclusion)

Xulosa qilib aytganda, yillar davomida yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularni komil inson sifatida jamiyatga kirishi uchun zamin yaratildi. Yoshlarga berilayotgan bu e'tibor, oxir-oqibat, o'z mevasini bermoqda.

Bunga yoshlarimizning xalqaro va respublika miqyosida erishayotgan yutuqlari yaqqol dalildir. Mazkur islohotlarning samarasi o'laroq kelajagimizning bunday yoshlar qo'lida porloq bo'lishiga hech qanday shubha yo'q. Chunki aynan bugungi yoshlar ertangi kunimizning, Yangi O'zbekistonning, Uchinchi Renessansning poydevori hisoblanadi.

Adabiyotlar ro'yxati:

- [1] Ўзбекистон Президенти Шавкат Мирзиёев БМТ Бош Ассамблеясининг 72-сессиясида нутқи // <https://uza.uz/uz/posts/zbekiston-prezidenti-shavkat-mirziyeev-bmt-bosh-assambleyasi-20-09-2017>
- [2]. Xudaynazarov A. O'zbekiston yoshlarini davlat boshqaruvida ishtiroki:sotsiologik tahlil. "Yangi O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirish strategiyasi: mavjud vaziyat varivojlantirish istiqbollari"mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya. T., 2023. – B. 114.
- [3]. O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi // <https://yoshlar.gov.uz/uz/about-agency/>
- [4]. Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида, хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. - Тошкент, 1997, 36-бет.
- [5]. Абдурашидова Н. Ёшлар дунёкарашида дин ва ахлоқнинг ўзаро мутаносиблиги. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences //Volume 2 | Issue 10.